

## IJTIMOIIY LIRIKADA URUSH MAVZUSI

*Ilmiy rahbar: To‘rayeva Bahor*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*professori v.b., filologiya fanlari doktori*  
*Karimjonova Muxtasar*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*XT2-20A-guruh talabasi*

Adabiyot insonning ruhiy poklanishi, uning komil inson bo‘lib shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega fanlardan biridir. Ijod – yurakdagi mehr va ezgulik tuyg‘usining mevasi. Salbiy hodisalarga munosabatda paydo bo‘ladigan nafrat tuyg‘usi ham o‘sha mehr va ezgulik hissi tufayli dunyoga keladi. Ijod qilmoq – odamlar yuragiga yaxshilik urug‘ini ekmoq, deb tushunaman. Bu uhdani har kim o‘z uslubi bilan, o‘z iste‘dodi darajasida ado etadi. Shoirlar bir-biriga o‘xshamasligi bilan qadrlidir. Mana shunday betakror shoir Mahmud Darvish 1941-yilning 13-martida Akka shahri yaqinidagi Barva qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, falastinlik arab shoiri, jamoat arbobi, jurnalist. Yoshligi Xayfada o‘tgan. Falastin xalqi ozodligi haqidagi she‘rlari uchun isroillik tajovuzkorlar tomonidan bir necha bor qamalgan. 1971-yilda vatanidan chiqib ketishga majbur bo‘lgan. Qohira, Bayrutda yashagan. Ijodi asosan vatan ozodligi uchun kurash mavzuida: "Qanotsiz qushlar", "Zaytun barglari", "Falastinlik oshiq", "Tunning oxiri", "Odatdagi g‘amgin kunlar", "Ovoz" kabi she‘riy to‘plamlari mavjud. She‘rlari o‘nlab xorijiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. "Nilufar" xalqaro adabiy mukofoti laureati.

Mahmud Darvish arablarning yaqin tarixida eng nom qozongan va ta‘sirga ega bo‘lgan ziyolilaridan sanalar edi. Mahmud Darvish falastinliklar o‘rtasidagi bo‘linishni ham qattiq tanqid ostiga olar edi. Shoir 67 yoshida - 2008-yil 5-avgustda AQShda Ramallohda dafn etilgan. O‘sha vaqtda yuragi ustida jarrohlik amaliyoti o‘tkazilayotgan holida olamdan ko‘z yumdi.

Falastin rahbarlari motam marosimida Mahmud Darvish falastinliklar bilan abadiy qolishi va u bu xalq birligining ramzi ekanini aytishdi. Mahmud Darvish o‘z hayoti davomida ham istilo ostida, ham muhojirlik hayotini tatib ko‘rdi. Falastin ozodligini kuylagan shoirning ko‘plab she‘rlari kuyga solingan va milliy ashulalar qatoridan o‘rin olgan.

"Zabt etilgan shahar" deb nomlanishiga asosiy sabab mening fikrimcha, Isroil davlati o‘z ko‘zlangan maqsadiga yurtlarni vayron etib, minglab bolalarni yetim qilib erishganligini ilgari suradi. Garchand buni ochiq oydin aytilmagan bo‘linsada, qizaloqning har bir so‘zlarida, so‘nggi chiqarilayotgan xulosada ko‘ra olamiz.

*Qizaloqning onaginasini*  
*yonib ketdi ko‘zi o‘ngida,*  
*yonib ketdi xuddi shafaqdek.*  
*Yupatishdi uni kattalar:*  
*– Onang uchib ketdi osmonga,*  
*Xafa bo‘lma, Jafokash degan*

*nom oladi endi u yoqda,  
sen ham keyin borib ko‘rarsan  
nur yog‘ilib turgan yuzini!*

She‘r murg‘ak qizaloqning onasiga bo‘lgan samimiy muhabbati va sevgisining o‘zaro munosabatini ifodalaydi. Bunday achinarli holat kishini o‘ylantirishga majbur qiladi. She‘r hayotiy voqea sifatda yozilgan bo‘lib, shoir o‘zining shaxsiy hissiyotlarini izohlaydi. "Zabt etilgan shahar" nomli she‘r Mahmud Darvishning tajribasidan kelib chiqib, yosh farzandning g‘amini ifodalovchi ajib go‘zal she‘riyat parchasidir.

*Qizaloqning onaginasini  
yonib ketdi ko‘zi o‘ngida,  
yonib ketdi kechki shafaqdek.  
Oyni yomon ko‘rar  
shu kundan,  
yomon ko‘rar qo‘g‘irchoqlarin.  
Shom qo‘nganda yerga har safar  
va uyquga ketganda shahar  
u turar-da,  
qichqirar titrab:  
– Men o‘ldirdim Oyni,  
men undan  
so‘ramagan bo‘lsam ham hech gap,  
yerga urdi oyijonimni:  
“Oying po‘rtaholday  
chiroyli emas,  
oying zaytun kabi  
kelishgan emas,  
oying baland osmonda emas,  
qop-qorong‘i mozorda yotar”.*

She‘r lirik janrga mansub va zamonaviy adabiyotning oq she‘r vaznida yozilgan. Oq she‘r aslida sillabik va sillabik-tonik sher tizimidagi misralari o‘zaro qofiyalanmagan she‘r turi: qofiyasiz she‘r, erkin vazn. Oq she‘r shoirga o‘z fikri va hissiyotini to‘laroq ifodalash imkonini beradi va undagi ritmik izchillik esa she‘r g‘oyasiga kuchli ta‘sirchanlik bag‘ishlaydi. Buning yaqqol namunasini "Zabt etilgan shahar" she‘rida ko‘rishimiz mumkin.

She‘rning asosiy mavzusi onaga muhabbat, va urushning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berish. Jamiyatning zaif qatlami hisoblangan ayollar va bolalar har vaqtda jabr ko‘rmasliklariga harakat qilinadi. Ammo, ming afsuslarki, ayrim davlat siyosatchilari, rahbarlari o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday tubanlikka borishlari mumkinligini va buning natijasida azob chekayotgan jajji qizaloq holatida tasvirlab beradi. Asosiy g‘oya: gumanizm bo‘lib, inson shaxsini va insoniy sifatlarni ulug‘lab ko‘rsatishdir. Quyida she‘rdagi ayrim jumalardagi alohida urg‘u berilgan turli mavzularni ko‘rishimiz mumkin:

*Qizaloqning onaginasini  
yonib ketdi ko‘zi o‘ngida,*

*yonib ketdi kechki shafaqdek.  
Dastavval so‘zlarim tuproq edi,  
men do‘stlashdim  
boshhoqlar bilan.  
Nafrat bilan to‘lgach so‘zlarim,  
men do‘stlashdim  
kishanlar bilan.  
Toshga aylanganda so‘zlarim  
do‘st tutindim  
oqimlar bilan.*

Ushbu jumalarda urush tugagach ham uning qonli izlari hali hayot nimaligini, oq-qorani ajrata olishga intilayotgan murg‘ak go‘dak qalblariga qasos tuyg‘usini solishi mumkin. Yoki didaktik nuqtayi nazardan qaralganda, so‘z nafrat bilan birga ishlatilgan holatda ayanchli yakun, ya‘ni mahbuslikkacha olib borishi mumkinligi ham anglaniladi.

She‘rda badiiy tasvirlar hamda simbolizmlar, tashbeh, tashxis kabi badiiy vositalar mavjud.

a. **"Qizaloqning onaginasini  
yonib ketdi xuddi shafaqdek"**

bu misrada ma‘no kuchaytirish uchun ishlatilgan va tinglovchini o‘ziga rom qiladigan darajadagi hisni bera oladi (**tashbeh - o‘xshatish**).

b. **"Oying po‘rtaholday  
chiroyli emas,  
oying zaytun kabi  
kelishgan emas,**

Ushbu parchada ham **tashbeh - o‘xshatish** yaqqol ko‘rinib bilvosita ifodalangan: *po‘rtaholday chiroyli, zaytun kabi kelishgan* kabi.

d. **"Oy"** va **"shahar"** esa g‘am va muhabbatni **alegorik** tushuntirish uchun ishlatilgan.

**"Allegoriya"** (ya‘ni **"allegory"** ingliz tilida) bir narsani yoki mavzuni simvolik so‘zlar orqali ifodalash usuli. Bu, alegorik bayonotda, ba‘zi narsalar uchun asosiy maqsadli bo‘lgan tasvirlar, so‘zlar yoki voqea boshqa narsalarni tushuntirishda ishlatiladi.

Masalan, she‘rda **"oy"** so‘zi alegorik tushuntirilgan. Bu so‘z aslida oydinlikni va nurni tasvirlash uchun ishlatilgan, lekin she‘rda bu so‘z qizaloqning onasiga bo‘lgan muhabbatini tasvirlash uchun ishlatilgan. Ya‘ni, **"oy"** aslida **"jonajonim"** yoki **"mehribonim"** degan ma‘noni tashkil etadi.

e. **"– Men o‘ldirdim Oyni,  
men undan**

so‘ramagan bo‘lsam ham hech gap,

**yerga urdi oyijonimni:**

**"Oying po‘rtaholday**

**chiroyli emas,**

**oying zaytun kabi**

**kelishgan emas..." (tashxis- jonlantirish, ya‘ni Oy odamlardek so‘zlashi)**

Bu she'r xalq dardini, vijdon azobi bilan birga o'ylab yozilgan...

Ming afsuslarki, inson o'z nomiga, berilgan aql ne'matiga kufroniy amal qiladi- insoniylik, mehr-shafqat, bir-biriga bo'lgan yordam kabi tushunchalar faqatgina moddiyat, kapitalistik orzular ilinjida vayron qilingan.

Nafsi ustidan hukmron bo'lolmagan, o'z hirsiga qul bo'lgan odamlargina yosh bolalarni ota-onalarisiz qoldiradigan urushga yo'l ochib beradilar... To'g'ri, siyosatchilar, davlat boshqaruvchilariga oson bitta qaror, bitta imzo bilangina urushga yo'l ochib beriladi, ammo o'ylashmaydiki, shu birgina qilingan noto'g'ri qaror minglab xonadonlarni barbod qiladi, oddiy xalq jabrlanadi. Bunday ayanchli holatga esa bu dunyoda vaqtincha orzu-havas uchun yashayotganlarga bimalol yo'l qo'yib bera oladilar.

Ushbu she'rni tanlaganimga turtki bo'lgan sabab ham aynan shu dolzarb mavzu: insonlarning odamiyligini yo'qotib borayotgani...

Hech o'ylab ko'rganmisiz, qalbida zarracha iymoni bo'lgan inson hatto chumoliga ham ozor berishdan xavfsiraydi. Navoiy hazratlarining chumolini masjididan tahorat olingan joyga qaytarib olib borganlari yorqin misol. Odamlarga xushmuomala, rahmdil bo'lgan inson hamisha har yerda hurmatga loyiq, va insonlar ham bunday insonlarga yaqin bo'lishga oshiqadilar, aks holatda esa qaniydi shu insonni ko'rmasak edi deb undan nafratlanish, uzoqlashish kabi holatlari kuzatilishi tabiiy hol.

Xulosa o'rinda ayta olamanki, inson sof Islomni o'rganibgina, Allohga muxlis banda bo'lgandagina bunday ezgu sifatlarini o'zida shakllantira oladi. Dinni esa kimdan olayotganimizga e'tiborli bo'lishimiz kerak va ayni paytda juda muhimdir. "Zabt etilgan shahar"ni o'qigan har bir inson holatni ko'z oldiga keltira oladi. Zero, shoir uchun bu eng katta yutuq, sababi u o'quvchilariga ta'sir eta olib, yuraklargacha yetib borish vazifasini muvaffaqiyatli uddaladi!

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmoud Darwish // Munzinger Personen (нем.)
2. <http://www.guardian.co.uk/books/2008/aug/11/poetry.israelandthepalestinians>.
3. Mahmud Darwish // Brockhaus Enzyklopädie (нем.) / Hrsg.: Bibliographisches Institut & F. A. Brockhaus, Wissen Media Verlag
4. New York Times 22 December 2001 *A Poet's Palestine as a Metaphor* by Adam Shatz  
Махмуд Дарвиш в переводе Амира Ваддаха аль-Амири.